

AN'ANALARNI TARANNUM ETGAN SAN'AT

**Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "O'zbektili va adabiyoti" kafedrası o'qituvchisi  
[dilnozaxushbaxtova@dtpi.uz](mailto:dilnozaxushbaxtova@dtpi.uz)

**Annatsiya:**Maqola orqali baxshichilik san'atining ma'naviy hayotimizdagi o'rni bebaho ekanligini, yosh avlodlarimizda Vatanga bo'lgan muhabbatni kuchaytirishda benazir xizmatchi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Xalq og'zaki ijodining yirik janri bo'lgan dostonlarimizning hozirgi kungacha sayqallanib yetib kelishida Sherobod dostonchilik maktabining benazir xizmatini ommaga yetkazish va shu bilan birgalikda bu maktabdan yetishib chiqqan baxshilarimizning mashaqqati benihoya ekanligini ko'rsatishdir.

**Tayanch so'zlar:**baxshi, do'mbira, baqsu, doston, baxshichilik, Sherobod dostonchilik maktabi, Alpomish, Go'ro'g'li, chechanlik.

Baxshi xalq dostonlarini yuqori, professional darajada, asosan, do'mbira, shuningdek, qo'biz jo'rligida ijro etuvchi, ularni ajdoddan-avlodga o'tkazuvchi xalq san'atkoridir. Biroq el orasida baxshi, deganda gohida kelajakni ko'ruvchi folbin, duoxon, kinnachilar ham tushuniladi. Kinnachibaxshilar sehrli, deb bilingan so'zlari va g'ayritabiiy tuyuladigan harakatlari bilan kasal kishini darddan xalos qilishga yoki kelajakdan darak berishga intilishadi. Bunday faoliyat usuli shomonlik ham deyiladi. Shuningdek, turkmanlar «baxshi» deganda xalq hofizini tushunsalar, qozoqlar kinnachi-shomonni «baqsu», deb atashgan<sup>1</sup>. Baxshilik san'ati markazi O'zbek folklorshunosligida Boysun, Bulung'ur, Nurota, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod, Chiroqchi kabi yirik dostonchilik maktablaridan tashqari, Qamay, Piskent, Qulbuqon, o'zbek-laqay va boshqa shunday markazlar ham ma'lum. Ular repertuarlari, uslubi, ma'lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra bir-biridan ajralib turadi.<sup>2</sup>

Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo baxshilarining ko'pchiligi doston kuylayotganda odatdagi ovozi musiqasi asbobi navosiga moslab o'zgartirishadi. Ovozni sozga jo'rlash baxshilar orasida «Tillo tarozi», deb ataladi. Baxshilar orasida yana bir qancha turkum ijodkorlar bor. Ularning ayrimlari dostonlarni do'mbira chertib, biroq tovushini o'zgartirmasdan, odatiy bir tarzda aytsalar, boshqa bir ijrochilar dostonlarni hech bir so'zsiz, faqat og'zaki aytishgan<sup>3</sup>. Baxshichilik san'atida o'zbek dostonchiligi mif – afsona – rivoyat – naql – ertak – doston bosqichlarida shakllanadi: "Doston" so'zi fors tilidan olingan bo'lib, "qissa", "hikoya", "tarix" ma'nolarini ifodalaydi. O'zbek badiiy adabiyotida dostonlar yaratilish usuliga ko'ra ikki xil bo'ladi. Birinchi turi yozma adabiyot vakillari tomonidan har bir bandi masnaviy – ikki misradan iborat, faqat she'riy shaklda yaratiladi. Ikkinchi tur dostonlar og'zaki ijod mahsuli sifatida folklor an'analarga bo'ysungan holda yaratiladi. Filologiya fanlari doktori, professor M. Saidov ta'rificha, og'zaki ijoddagi dostonlarda she'riy va nasriy parchalardan iborat badiiy manba – matn bo'lishi kerak. Ikkinchidan, dostonning muzikasi bo'lishi lozim (Bu o'rinda shuni aniqlab olish kerakki, har bir alohida olingan doston uchun alohida yirik muzika asari bo'lishi shart emas). Uchinchidan, dostonni bir kishi ijro etganligi tufayli kuylovchi do'mbira cherta bilishi yoki qo'biz chala bilishi zarur. To'rtinchidan, dostonni

<sup>1</sup> O'zbek folklorining epik janrlari / O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 7-kitob. - T.: Fan, 1981

<sup>2</sup> Surxondaryo viloyati davlat arxivi.I.17jamg'arma,1-ro'yxat. 52-ish,71-varaq.

<sup>3</sup> Saidov M. O'zbek dostonchiligida badiiy mahorat. – T.: Fan, 1969.

kuylayotgan baxshi yaxshi ovozga ega bo'lishi va qo'shiq aytish mahoratini egallagan bo'lishi zarur<sup>4</sup>.

Xalq og'zaki ijodida doston o'tmish zamonlar to'g'risida qahramonlik idealizatsiyasi ko'lamidagi hikoyalar, rivoyatlardir. V.M.Jirmunskiyning fikricha: "Epos-bu xalqning qahramonlik idealizatsiyasi ko'lamining jonli o'tmishidir. Uning ilmiy-tarixiy qimmatini, ayni paytda juda katta ijtimoiy, madaniy-tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir"<sup>5</sup>. Dostonning yaratilishi xalqimizning ma'naviy maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan mahkam bog'liqdir. Asriy kurashlar va ideallar uning tematikasi, g'oyaviy mazmuni, obrazlar tizimi, syujet va kompozitsiyasi mohiyatini belgilaydi. Dostonlarimizdagi ulug'vor poetik umumlashgan va yuksak badiiy obrazlar ularni dunyo folklorining tengsiz namunalari-rus bilinalari, ukrain dumalari, karelo-fin runlari, yoqut olonxosi, qozoq

botirlar jiri, buryat uligerlari, qirg'iz "Manas"i, qoraqalpoq "Qirq qiz"i, hind "Mahabxarata"si, G'arb va Sharqning ulkan eposlari qatoriga qo'ydi. Epos o'tmish zamonlar to'g'risida qahramonlik idealizatsiyasi ko'lamidagi hikoyalar, rivoyatlardir<sup>6</sup>. M.Saidovning ta'kidlashicha, doston murakkab san'at asari bo'lib, uning doston bo'lishi uchun adabiy matn, musiqa bo'lishi, kuylovchi hofizlik san'atini puxta egallagan va soz cherta bilishi zarur. O'zbek xalq dostonlari ko'p qirrali va keng mavzuli bir ijoddir. U uzoq asrlar davomida yaratildi va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylanib kelindi. Shu tariqa unda turli zamonlar qatlami yuzaga keldi. Bu holat ularni muayyan bir turlarga bo'lib o'rganishni taqozo etadi.

Xalq dostonlari dastlab V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar<sup>7</sup>, keyinroq M.S.Saidov<sup>8</sup> tomonidan tasniflangan. Bularga: 1.Qahramonlik dostonlari. 2.Jangnoma-dostonlar. 3.Tarixiy dostonlar. 4.Romantik dostonlar. 5.Kitobiy dostonlar. Turkum dostonlar o'zbek, tojik, qozoq, turkman, qoraqalpoq, tatar, Ozarbayjon, Gruzin, Turk xalqlari orasida keng tarqalgan. Jangnoma dostonlarda asar qahramonlarining tarixiy va afsonaviy urushlardagi jasorati tasvirlangan. "Jangnomai Abo Muslim", "Jangnomai Amir Xamza", Firdavsiyning "Shohnoma" asari, "Jangnomai Jamshid", "Xushang", "To'maris" kabilar shular jumlasidan edi. Baxshilar repertuarlarida o'tmishda bo'lib o'tgan voqea va xodisalar, tarixiy shaxslar faoliyati asosida yaratilgan dostonlar ham bo'lib, ularda tarixiy haqiqat bilan afsona, voqelik manba bilan badiiy to'qima chatishib ketgan bo'ladi.

Surxon vohasi hududi aholisining madaniy hayotida og'zaki ijod, ya'ni folklor muhim o'rin egallagan bo'lib, unda baxshichilik yo'nalishi o'ziga xos rivojlanish tarixiga ega. Baxshichilik janri ayniqsa, Dashti qipchoq o'zbek urug'lari, jumladan qo'ng'irotlar orasida keng tarqalgan. Surxondaryoda baxshichilik keng rivojlangan bo'lsada, lekin Sherobod dostonchilik maktabi o'zining alohida o'rniga ega bo'lgan. Sherobod dostonchilik maktabi faoliyati folklorshunos olimlar tomonidan o'rganilib, nihoyatda yuqori baholangan. O'z vaqtida folklorshunos olimlar tomonidan Sherobodlik baxshilardan 150 dan ortiq har xil dostonlar va xalq og'zaki ijodi namunalari yozib olingan. Shulardan 80 dan oshig'i O'zbekiston Fanlar akademiyasi A.Navoiy nomidagi Til va adabiyoti instituti folklor bo'limining H.Zarifov nomidagi folklor arxivida hamda A.Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida

saqlanmoqda<sup>9</sup>. Sherobod baxshilari nafaqat Surxon vohasida, balki qo'shni Qashqadaryo viloyatining Qamashi, Chiroqchi, Dexqonobod tumanlari, qardosh Turkmaniston va

<sup>4</sup> Saidov M. O'zbek dostonchiligida badiiy mahorat. – T.: Fan, 1969.

<sup>5</sup> Жирмунский В.М. Народный героический эпос. Л., ГИХЛ, 1962.

<sup>6</sup> Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. М., ГИХЛ., 1947

<sup>7</sup> Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. М., ГИХЛ., 1947

<sup>8</sup> Saidov M. O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat. Toshkent, 1969, 21-bet.

<sup>9</sup> Ergashev A. Sherobod dostonchilik maktabi. -T.: 1991

Tojikiston Respublikalarining uzoq ovul va qishloqlarida ham mashhur bo'lishgan. Sherobod baxshilari tomonidan do'mbira soziga qo'shib aytilgan «Gulixiromon», «Oyparcha», «Oychinor», «Oysuluv», «Malla savdogar», «Kuntug'mish», «Go'ro'g'li», «Yozi bilan Zebo», «Kelinoy», «Dastagul», «Nurali va Qori Ahmad», «Alpomish» dostonlari aholi tomonidan sevib tinglangan<sup>10</sup>.

Rus sharqshunos orientalisti Ye.F.Kalning 1890 yildagi qo'lyozmalarida Termiz yaqinidagi Solihobod qishlog'ida ayinli urug'idan Omonnazar baxshi uch soat to'xtovsiz «Alpomish» dostonidan kuylab berganligi haqida ma'lumotnoma qoldirgan<sup>11</sup>. Sovet davrida baxshilarning ajdodlardan meros qolgan doston va termalarni el orasida hozirgidek zavqu shavq bilan aytishimiz, baralla kuylashimiz uchun yetarli imkoniyat yo'q edi. Ma'lum bo'ladiki, baxshi xalq tomonidan cheksiz hurmatga, e'zoz topgan hunar egalari hisoblanishadi. O'zbek dostonchiligida doston kuylash an'anasi qadimda uch yo'nalishda rivojlangan. Birinchidan, Bulung'ur, Qo'rg'on, Shahrisabz, Qamay, Narpay, Sherobod, Janubiy Tojikistonda yashovchi o'zbek-laqay dostonchilik maktablarida do'mbira chertib yakka holda, bo'g'iz ovoz bilan ijro etilgan. Ikkinchidan, Xorazmda tor, dutor, g'ijjak, garmon, bulamon, qo'shnay, doira jo'rligida ba'zan yakka, ba'zan juft holda, ochiq ovoz bilan ijro etilgan. Uchinchidan, Farg'ona vodiysida dutor jo'rligida ochiq ovozda aytilgan<sup>12</sup>.

O'tmishda vohada keng tarqalgan turli cholg'ular orasida qo'biz alohida ahamiyat kasb etgan, masalan, Ro'ziboy baxshi o'z aytimlarini qo'biz jo'rovozliligida ijro etgan. Umir baxshi ham do'mbira va qo'biz cholg'u asboblarning mohir sozandasi bo'lgan hamda ayni shu asboblar jo'rligida elning to'y hashamlarida dostonlar kuylagan. Lekin hozirgi kunda qo'biz cholg'usi vohada udumdan chiqib ketgan, xuddi shunday holat urma-zarbli asbob dap (daf, ya'ni childirma) ga ham tegishlidir. Dap-doiraga o'xshash bo'lib, gardishi (kashnok, asli qasmoq) o'rik yoki yong'oq yog'ochidan yasalgan va echki terisi bilan qoplangan. Gardishi (doira, aylana atrofi) da xalqachalar osilmagan, uning tovushi past va jarangsizroq bo'lib, baxshi xonishiga hamohanglik kasb etgan. Boysunda kasal va bemorlarni davolash maqsadida o'tkaziladigan «jahr» marosimida asosan dap (talaffuzda dapp, ya'ni doira) keng qo'llangan. Xususan, Karomat baxshi, Said baxshilar o'z aytimlarida dapdan istifoda etishib, «jahr» marosimlarini o'tkazib kelishgan. Boymurod baxshi esa dostonlarni ham dap va ham do'mbira jo'rovozliligida ijro etib, o'z mahoratini ko'z-ko'z qilgan<sup>13</sup>.

Sovet mustabid tuzum mafkurasi yillarida milliy ma'anviyatimizning teran g'oyasi hisoblangan xalq og'zaki ijodini noyob durdonasi hisoblangan dostonchilik va baxshichilik ijodiga jiddiy salbiy ta'sir yetkazildi. Mashhur taniqli baxshilar ta'qib ostiga olindi. Yosh ijodkor baxshilar qo'rquv ostida o'z ijodlarini to'xtatib qo'ydilar. Qurbonpo'lat baxshi yosh umrining xazon etilishi, ikki tilda kuylagan Farmon shoirning o'n besh yil ta'qib ostida yurishi, Mardonqul Avliyoqul o'g'lining yuzboshi (amaldor) deb qamalishi, Tog'ay shoir Mahmanov oilasining o'n olti yil Sibirga surgun qilinishi, Xolyor Abdukarim o'g'lining otilishi baxshichilik maktablariga jiddiy zarba bo'ldi. Natijada ko'plab baxshi-shoirilar o'z ijodlarni to'xtatib, doston kuylashni yig'ishtirib qo'ydilar. Chunki, baxshilar erkin kuylashni yaxshi kuradilar. Bunday sharoitda baxshilarda o'zidan qurqish tufayli, tadqiqotchilarga doston, termalar kuylashdan ishonchsizlik paydo bo'ldilar. Masalan, Tosh shoir Chorshanbi o'g'lining folklorshunos M.Saidovni, Xayim shoir Pirimqulovning M.Murodovni, Abdulla shoir Nurali o'g'li va Ermamat baxshining A.Qahhorovni doston aytmasligi sabablari o'sha davr sovet mafkurasining tazyiqi edi.

Mustaqillik yillarida Xalq og'zaki ijodini ilmiy o'rganish bilan birga milliy ma'naviy madaniyatimiz rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan baxshilar bo'yicha tanlovlar

<sup>10</sup> O'sha manba.

<sup>11</sup> Зарифов Х.Т. К изучению узбекского народного эпоса // Вопросы изучения народов эпоса СССР. Р=м., 1958

<sup>12</sup> Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва, 1947

<sup>13</sup> Denov tumani davlat arxivi.392-jamg'arma,1-ro'yxat, 13-ish, 22-varaq

o'tkazish hamda ularning sa'natini ulug'lash maqsadida muhim ishlar qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktyabrdagi "2010-2020 yillarga mo'ljallangan nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 222-sonli qarori ijrosi bo'yicha Surxon vohasida 2013 yilda milliy madaniyatini, xususan, nomoddiy-madaniy merosini muhofaza qilish, rivojlantirish va uning ahamiyatini targ'ib etish

maqsadida muhim ishlar amalga oshirildi. Xullas, dunyodagi har bir xalqning asrlardan beri avlodlardanavlodlarga o'tib kelayotgan asriy an'analari, urf odatlari va qadriyatlari mavjud. Mazkur qadriyatlarda o'sha xalqlarning uzoq yillik tarixi, ijtimoiy hayoti hamda yashash tarzi aks etgan. Bu qadriyatlarni kelajak avlodlarga yetkazishda albatta baxshichilik san'atining o'rni beqiyos. Faqat turkiy elatlarga xos bo'lgan baxshichilik san'ati avlodlarga otabobolarining qay tarzda yashaganligi, ularning bosib o'tgan hayot yo'llari, o'zlariga ma'lum bo'lgan hayotiy bilimlarini juda go'zal tarzda ifoda etib beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullayev U. Etnologiyada terminologiya muammosi // O'zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va nazariy metodologik yondashuvlar. – Toshkent: 2004. – B. 10-14.
2. Afzalov M. O'zbek xalq baxshilari. Sharq yulduzi. – 1946.
3. Ashirov A., Qayumov A. Boysun aholisining an'anaviy turmush tarzi: o'tmishda va bugun // Boysun tarixi va an'analari. – Toshkent, 2005.
4. Bo'riyev O., Xo'jamberdiyev T. O'zbek xalqi boqiy qadriyatlari. – Qarshi, 2005.
5. Jumanazarov U. O'zbek folklori va tarixiy voqelik. – Toshkent: Fan, 1991.
6. Jo'rayev M. "Alpomish" dostonida mifologik obrazlar ("Alpomish" – o'zbek xalq qahramonlik eposi) – Toshkent: Fan, 1999.